

**OSIYO-AMERIKA VA OSIYO-YEVROPA DIASPORA****ADABIYOTINING SHAKLLANISHI****Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada diaspora atamasining kelib chiqishi, ma'nosi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyotining shakllanishi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** diaspora, adabiyot, diaspora adabiyoti, Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti, Osiyo-Yevropa diaspora adabiyoti.

Diaspora grek tilidan olingan bo'lib, “*dia*” – old qo'shimcha va “*speirein*” – *sochmoq, sepmoq* fe'llaridan iborat bo'lib, “*tarqatmoq, tarqamoq, sochmoq, ketkazmoq*” ma'nolarini anglatadi. “Diaspora” so'zi birinchi marotaba yahudiy Injilining grekcha tarjimasi “Septuagint”da “yahudiylarning majusiylar orasida tarqalishi” ma'nosida ishlatilgan. Ushbu atama keyinchalik Plutarx, Aleksandriyalik Filon hamda o'rta asr Yevropa adabiyoti namoyondalarining asarlarida tilga olingan. Xorijiy qomuslar va lug'atlarda diaspora tushunchasi yahudiy xalqining ko'p asrlik xalqlar, madaniyat va dinlar orasida o'zining tarixiy kelib chiqishi, vatanidan uzilishini ifodalash uchun qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur atama o'zlashtirish maqsadida egallangan hududlarga ko'chib borgan qadimgi grek shahar-davlatlarining jamoasiga nisbatan ham qo'llanilgan. Vaqt o'tishi bilan diaspora atamasining doirasi kengayib borgan hamda o'zining vatanidan o'zga, mutlaqo yangi joyda milliy-madaniy ozchilik sifatida yashay boshlagan milliy va diniy guruhlarini diaspora nomi bilan ifodalash an'anasi yuzaga kelgan. Bugungi kunda “diaspora”



tushunchasi yangicha sharoitlarda yashovchi qochoqlar, etnik va milliy ozchiliklar, mehnat muhojirlari va boshqa jamoalarni tavsiflaydi. “Modern Diasporas in International Politics” (“Xalqaro siyosatdagi zamonaviy diasporalar”) kitobida diasporaning faqatgina yahudiylar uchun qo'llashning noto'g'ri ekanligi, chunki ulardan oldin ham finikiyaliklar va ossuriyaliklar singari xalqlarning diaspora bo'lib yashaganliklari ta'kidlanadi va diasporalar ikki turga: fuqaroligi bo'lmagan diasporalar (kelib chiqqan davlati noma'lum muhojirlar) va fuqaroligi mavjud diasporalarga (kelib chiqqan davlati ma'lum muhojirlar) ajratiladi. Kitob muallifi Gabriel Sheffer diasporani asoslovchi uchta muhim mezonni keltirib o'tadi:

1. Diaspora vakillarida jamoaviy o'ziga xoslikning saqlanib qolinishi va rivojlantirilishi;
2. Tug'ilgan davlati yoki ko'chib borgan davlatida boshqalardan farq qiluvchi ichki tashkilotning mavjudligi;
3. Vatan bilan muhim aloqalarni o'rnatish: haqiqiy yoki ramziy aloqalar bo'lishi.<sup>1</sup>

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda diaspora – bu o'zining milliy davlatidan tashqarida yashovchi etnosning bir qismi, deya qaralmoqda. Ushbu muammoni tadqiq etgan olimlar diaspora umumiy etnik ildizlari va ma'naviy qadriyatlari bo'lgan, o'zining kelib chiqishidan o'zga mamlakatda yashaydigan xalqning bir bo'lagi, degan qarash borasida yakdildir. Diaspora dinamik hodisa hisoblanadi va uning dinamikligi so'nggi yillarda faollashgan migratsiya oqimi, siyosiy, diniy, ijtimoiy, maishiy, lingvistik va adabiy nuqtayi nazardan yangi diasporalarning paydo bo'lishi, ushbu etnik guruhlariga oid yangi tadqiqotlarning olib borilishi munosabati bilan yaqqol sezilmoqda. “Diaspora” atamasi fanda 1970-yillarning oxirlarida keng qo'llanila boshlangan bo'lsa, 1990-yillarga kelib dunyoning ko'plab mamlakatlarida siyosiy, hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy bo'linishning dolzarb o'ringa chiqishi munosabati bilan ushbu so'z ko'proq jarang socha boshladi, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, madaniy, etnografik va boshqa ilmiy tadqiqotlardan diasporizatsiya mavzulari faol o'rin egallay boshladi. Nazariy jihatdan ta'rifga ega bo'lishiga qaramasdan, diasporaning ilmiy kontekstlarda bir necha xil ma'noda qo'llanilishi kuzatiladi. Diaspora – bu turli tarixiy sabablarga ko'ra yashash joylarini o'zgartirgan bo'lishiga qaramasdan, mushtarak etnik va

<sup>1</sup> Modern Diasporas in International Politics. Ed. Sheffer G. New York: St. Martin's, 1986.–349 p.



madaniy qadriyatlar negizida birlashgan hamda o‘z etnik tilini aloqa vositasi sifatida saqlab qolgan milliy guruhdir.

Ingliz adabiyotshunos olimi Jeyms Prokter “diaspora”ni ham yakka shaxs yoki jamoa tomonidan joylashuvni o‘zgartirish bilan ifodalanuvchi geografik fenomenon, ham tafakkur tarzi yoki dunyoqarashni anglatuvchi nazariy tushuncha sifatida tushunish mumkinligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Atamaning ikkinchi ma’nosi diasporik tasvir va tasavvur tushunchalari faqat muhojirlar yoki kelib chiqishi yuzasidan biror mamlakatda ozchilikni tashkil etgan holda istiqomat qiluvchilarnigina ifodalovchi atama emas, balki barchaga tegishli ekanligini taqozo qiladi. Britaniyadagi Panjob diasporasi vakili, diaspora va etnik identiklik bo‘yicha tadqiqot olib borgan sotsiolog Avtar Brahning qayd etishicha, diasporaning moddiy va ruhiy kengliklari allaqachon o‘sha hududda o‘rnashgan va tub aholi sifatida namoyon bo‘luvchilarning e’tibori hamda ishtirokisiz vujudga kelmaydi. Bunda jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy muhit irq va noliberal millatchilikdan siyosiy va axloqiy tenglikning tan olinishi ustun turuvchi ilg‘or ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sharoit yaratib beradi. Diaspora atamasi ona yurtidan ayrolik va makonsizlik bilan bog‘liq azob-uqubatlar bilan yonma-yon yursa-da, diasporalar umid va hammasini yangitdan boshlash uchun zamin hamdir<sup>3</sup>. Diasporalar madaniyatini tadqiqot etgan Pol Gilroy hamkasbining fikrini qo‘llagan holda diasporaning eng muhim manbasi – bu yorqin kelajakka nisbatan umid tuyg‘usidir, u diasporalar uchun eng bebaho ne’matdir, deya ta’kidlaydi<sup>4</sup>.

Muhojirlik bo‘yicha xalqaro tashkilotning lug‘atida diasporaga “*o‘zligi va mansublik hissi muhojirlik tajribasi va kelib chiqishi orqali shakllangan muhojirlar yoki ularning avlodlaridir. Ular vatanlari va ko‘chib kelgan mamlakatidagi diasporaning boshqa vakillari bilan aloqani uzishmaydi, ular bilan yagona tom ostida birlashadi*”, deya ta’rif berilgan. Shuningdek, diasporalarni transmilliy jamoalar, deb ham atash mumkin, chunki global harakatchanlik avj olgan dunyoda ular birdan ortiq davlatga bevosita bog‘liqdir.

<sup>2</sup> Procter J. “Diaspora” in The Routledge Companion to Postcolonial Studies, ed. John McLeod. –London and New York: Routledge, 2007. –P.151.

<sup>3</sup> Brah A. Cartographies of Diaspora: Contesting Identities. –London and New York: Routledge, 1997. –P.209.

<sup>4</sup> Gilroy P. After Empire: Melancholia or Convivial Culture? –London and New York: Routledge, 2004. –P.147.



Diasporaning transmilliy xususiyati shundan dalolat beradiki, bundan muhojirlar davlatlar va jamiyatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, ular bir necha tarmoqlarga tayangan holda turli madaniyatlarni, birdan ortiq jamiyatga mansublik hissini o'zlarida aks ettirishadi.<sup>5</sup>

Osiyo xalqlari, shu jumladan, afg'onlar va pokistonliklar ham muayyan tarixiy-siyosiy sabablarga binoan o'z yurtlarini tark etib, AQSH va Buyuk Britaniyaga muhojir sifatida borib, mahalliy til, madaniyat va yashash tarzini o'zlashtirib, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalarini yaratishgan. Ikkinchi jahon urushidan oldin Osiyo aholisining Amerikaga ko'chib kelishi salmoqli darajada ko'tarildi. Asosan, Xitoy, Yaponiya, Filippin, Koreya va Hindistonlik muhojirlar o'z yurtidagi notinchlik va iqtisodiy tanazzul sabab Kanada va Qo'shma Shtatlarda yashash va ishlashni afzal ko'rar edilar. Muloqotda keng qo'llanilayotgan “osiyo-amerikalik” tushunchasi bugungi kunda Amerikada tug'ilganidan qat'iy nazar kelib chiqishiga ko'ra “osiyolik” bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi. Osiyo-amerikaliklarning dastlabki etnik kategoriyasi xitoyliklar sanalib, ular Amerika hududlariga dastlab 1830-yillarda shakar plantatsiyalarida, 1860-yillarda temiryo'l qurilishlarida ishlash uchun kelishgan. 1880-yillarda yaponlar, XX asrning boshlarida esa koreys, hind va filippinlik immigrantlar oqimi Amerikada qora ishchilar sinfini shakllantirgan. 2000-yillarda aholi sonining deyarli besh foizini tashkil etgan osiyoliklarning irqiy kamsitilishlarga duch kelganliklarini “Chinatown”, “Koreatown”, “Little Tokyos” kabi hududlarning shakllanishi bilan izohlash mumkin.

Britaniyadagi pokistonliklar diasporasining shakllanishi Pokistonning 1947-yildagi mustamlaka maqomidan mustaqil davlat maqomiga o'tishi bilan bog'liq hududiy bo'linishlar, Hindiston bilan siyosiy-harbiy mojarolar oqibatida kelib chiqqan 1950-60-yillardagi ko'chishlarning yirik to'lqini bilan belgilanadi. Amerika va Britaniya muhojirlar eng ko'p ko'chib ketadigan davlatlardan bo'lganliklari sababli ularning aholisi turli irqlar, millatlar va dinlarga mansub etnik guruhlardan tashkil topgan. Diasporalar aholisi ko'payishi bilan bir qatorda oldinlari olimlar tomonidan muhojirlar, ko'chmanchilar

<sup>5</sup> International Migration Law. Glossary on Migration. International Organization for Migration. Geneva, 2019. – P.49. [www.iom.int/glossary-migration-2019](http://www.iom.int/glossary-migration-2019).



va badarg‘a qilinganlar, deya atalgan jamoalar ham diaspora nomi bilan atala boshlangan.<sup>6</sup> Amerika va Britaniyaga aksariyat muhojirlar o‘qish, ishlash maqsadida yoki o‘z davlatidagi iqtisodiy-siyosiy tanazzul, diniy mojarolar va urushlar tufayli kelib qolishadi. Vaholanki, o‘zi mansub bo‘lgan madaniyatdan voz kechmagan insonlar boshqalardan o‘zining ism-familiyasi, tashqi ko‘rinishi, madaniyati, etnik kelib chiqishi va dini yuzasidan ajralib turishini yaxshi anglashadi.

O‘rta Sharq, shu jumladan, Afg‘oniston va Pokistonda an‘analarni qat’iy diniy va madaniy qonun-qoidalar orqali asrab-avaylab, bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazishni ifodalovchi konservativ jamiyat tizimi hukmronlik qiladi. Konservatorlar hukumat, maktab, ibodatxona va oilaning jamiyatdagi rolga yuqori baho berib, madaniy qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalarning ular yordamida avloddan avlodga o‘tishini ta‘minlashdagi ahamiyatini anglashadi. Bunga teskari ravishda G‘arb jamiyatida insonlarning erkinligi asosiga qurilgan liberal tizim ustuvordir va unda axloq-odob qoidalaridan ma‘lum darajada og‘ishish kuzatiladi. Liberallar har bir shaxsning konstitutsiyaviy huquqi bo‘lgan erkinlikdan bahramand bo‘lishi tarafdorlaridir. Liberallikning asosiy xususiyatlarini ham shaxsiy rivojlanish va tajriba hamda o‘zgarishlarni sinab ko‘rishga ishtiyoq bildirish tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyoti XIX asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan. Ayniqsa, Amerikada va Britaniyada Afg‘oniston va Pokiston diasporasining shakllanishi Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyotining rivojlanishidagi asosiy omillaridandir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Husayniy X. “Ming quyosh shu’lasi”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 288-bet
2. Husayniy X. “Shamol ortidan yugurib”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 208-b.
3. Husayniy X. “Tog‘lar ham sado berdi”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 240-b.
4. Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o‘ziga xosligi: F.f.f.d. diss. – Toshkent, 2020. – 146 b.

<sup>6</sup> Butler K. Defining Diaspora, Refining a Discourse. –New Jersey: Rutgers University, 2002. – P.189.



5. Sodiqova T. “Yashash tilsimi”. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 19-b.
6. Yousafzai M. “We are displaced”, London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.
7. Yusufzoy M. “Men Malalaman”, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 384-b. ko‘plab badiiy asarlar yozishgan.